

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.A.Abduxalimov	
Andijon viloyatida sog'liqni saqlash muassasalari faoliyatidan.....	213
F.K.Yusupjanova	
Turli tizimli tillarda "head/bosh/ голова" somatik komponenti bilan makallarning qiyosiy-tipologik o'rganish	217
F.M.Mamadjanov	
Katta ma'lumotlar asrida milliy xavfsizlik tadqiqotlari.....	227
M.Komilova	
Imkoniyati cheklangan o'quvchilarni ta'limga jalb qilish	233
A.A.Abduxalimov	
Namangan viloyatidagi shifoxonalar faoliyati va ularning moddiy-texnik holati.....	239
I.R.Asqarov, M.M.Akbarova, Z.A.Smanova	
Portulaca oleracea o'simligining kimyoviy xossalari	242
S.M.Isroilova	
Muloqot qilish rus tilini oqitish jarayonida talabalarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish.....	249
Sh.V.Djalolov	
Umumta'lim maktab tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligi va organizmning funksional holatining monitoringi.....	253
A.A.Qambarov	
Marg'ilonlik katta ashula darg'alari.....	260
D.T.Samatov	
Falsafa fanini o'qitishda multimediyaviy storitellingdan foydalanishning samaradorligi.....	265
A.U.Azimov	
Yuksak axloqiy yoshlarni tarbiyalashda fuqarolik jamiyatining o'rni	269
A.A.Ahrorqulov	
Oliy ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurash.....	275
D.A.Mamajonova	
Oliy ta'lim sohasida korrupsiya va korrupsiyaviy xavf-xatar tushunchalari.....	279
M.M.Mamadaliyeva	
Oliy ta'lim sohasida korrupsiyaviy xavflar tahlili	282
U.O'.Musoyev	
Buxoro xonligida yer egaligi munosabatlari va ularning xududiy tavsifi.....	286
D.Y.Tashnazarov	
Yunon-rum kurashchilarini texnik usullarga o'rgatishda umumiy va maxsus tayyorgarligi	291
M.M.Alimova	
Ikkinchi jahon urushi arafasida mehnat intizomi (Buxoro viloyati)	299
R.Sh.Bozorova	
Gidropoetonimlarning onomastik birliklar tizimidagi o'rni.....	303
E.X.Zoyirov	
Ya'qubi Charxiyning "Tafsiri" da pir-murshid tushunchasi	307
A.S.Inomov	
Ichki ishlar organlarida amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlar strategiyasi.....	311
I.S.Aslonov	
O'zbekistonning mustamlakachilik davrida savdo va transport yo'llari tarixi	316
B.M.Jo'raquziev	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy siyosat masalalari	320
O.Radjabov	
Qirg'izistonda temir yo'llar tarixi	324
Y.Shukurillaev	
Sho'ro Rossiyasi tomonidan Buxoro amirligining bosib olinishi jarayonida to'plagan razvedka ma'lumotlari tahlili	330
M.M.Mamatkodiroy	
Maktablarda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodologiyasini yaratish uchun asosiy tizimli komponentlar.....	333
M.Sh.Qoraboeva	
Islom falsafasida intellektual faoliyat mezonlariga doir qarashlar tahlili	338

IMKONIYATI CHEKLANGAN O'QUVCHILARNI TA'LIMGALIB QILISH
ПРИВЛЕЧЕНИЕ СТУДЕНТОВ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ К ОБРАЗОВАНИЮ
INVOLVING STUDENTS WITH DISABILITIES IN EDUCATION

Komilova Muxtaram¹

¹Komilova Muxtaram

— Farg'ona viloyati Toshloq tumani 2-Ingliz tiliga
ixtisoslashgan umumta'lim maktabi ingliz tili
o'qituvchisi.

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida alohida ta'limga muhtoj bolalarni ijtimoiy himoya qilish va ta'lim sohasidagi yutuqlar mavzusi yoritilgan. Maqolada turli ehtiyojlarga ega bo'lgan bolalarga tengdoshlari bilan birgalikda ta'lim olish va jamiyatga moslashish imkonini beruvchi inklyuziv ta'lim muhimligi ta'kidlangan. Inklyuziv ta'lim olish uchun shart-sharoit yaratish muhimligi va uning jamiyatdagi alohida ehtiyojli bolalar kelajagiga ijobiy ta'siri yoritilgan.

Аннотация

В данной статье рассматривается тема социальной защиты и образовательных достижений детей с особыми образовательными потребностями в Республике Узбекистан. В статье подчеркивается важность инклюзивного образования, которая позволяет детям с разными потребностями учиться вместе со сверстниками и адаптироваться в обществе. Подчеркивается важность создания условий для инклюзивного образования и его положительное влияние на будущее детей с особыми потребностями в обществе.

Abstract

This article covers the topic of social protection and educational achievements of children with special educational needs in the Republic of Uzbekistan. The article emphasizes the importance of inclusive education, which allows children with different needs to learn together with their peers and adapt to society. The importance of creating conditions for inclusive education and its positive impact on the future of children with special needs in society is highlighted.

Kalit so'zlar: farzand, ota-ona, o'qituvchi, nogiron, anketa, so'rovnomma, maktab.

Ключевые слова: ребенок, родитель, учитель, инвалид, анкета, опросник, школа.

Key words: child, parent, teacher, disabled person, questionnaire, questionnaire, school.

KIRISH

Har qanday ruhiy, jismoniy nuqsonda ham taraqqiyot davom etadi. Mamlakatimizda erkin bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik huquqiy davlat barpo etish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lida amalga oshirilayotgan tub islohotlarning zaminida, avvalo, har bir inson uchun hech kimdan kam bo'lmagan munosib hayot va turmush sharoitlarini yaratishdek ezgu g'oya mujassamdir. Ayniqsa, aholimizning ko'pchilik qismini, ya'ni 65-70 foizini tashkil etayotgan yosh avlodni sog'lom kamol topishi uchun zarur imkoniyatlar hamda sharoitlarni yaratish, ularni har tomonlama barkamol shaxslar etib shakllantirish jamiyatimiz taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq bo'lgan ijtimoiy vazifa sifatida bugungi kunda davlatimiz siyosatining markazida bo'lib kelmoqda. Zero, 2008-yil 22 – aprelda “ O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida”gi qonun qabul qilindi. Bu qonun 2021-yil 16-yanvardan o'z kuchini yo'qotgan bo'lib, bu qonunga muvofiq 2020-yil 15 oktabrda “ Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida” gi O'RQ-641 sonli qaror qabul qilingan bo'lib, bu hujjat ko'zi ojizlar uchun mo'ljallangan Brayl alifbesida ham nashrdan chiqarildi. Prezidentimiz Sh.M.Miziyoyev tomonidan 13-oktabr 2020-yilda “Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim–tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora–tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4860-son qarori qabul qilindi. Bu hujjat Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasida e'lon qilingan va 2020- yil 14–oktabrdan kuchga kirgan. Hujjatga ko'ra 2020-2025-yillarda Xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi va 2020-2021 yillarda uni amalga oshirish bo'yicha “Yo'l xaritasi” tuzib chiqildi. Bu konsepsiya 2 bosqichda amalga oshirish rejalashtirilgan bo'lib, 1- bosqichda (2020-2022-yillar) inklyuziv ta'limni yo'lga qo'yish uchun shart-sharoitlar yaratish, bu bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash, ijtimoiy, normativ bazani yaratish, jihozlash va zarur o'quv qurollari bilan maktablarni ta'minlash nazarda tutilgan. 2-

bosqichda (2023-2025-yillar) inklyuziv ta'lim tizimini bosqichma-bosqich umumiy o'rta ta'lim muassasalarida joriy etish, bu bo'yicha chora – tadbirlarni amalga oshirish kabilar. Inklyuziv ta'lim– bu maxsus ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma–xilligini hisobga olgan holda barcha tahsil oluvchilar uchun ta'lim muassasalarida ta'lim olish imkoniyatini teng ravishda ta'minlashdir. Ushbu qonun imkoniyati cheklangan bolalarga tengdoshlari bilan teng ravishda ta'lim olish imkonini beradi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Inklyuziv ta'lim tufayli alohida yordamga muhtoj bolalar me'yorida rivojlangan bolalar bilan tenghuquqlilik asosida o'qishiga, ular bilan o'zaro do'stona munosabatda bo'lishiga, oilasi, ota-onasi bag'rida yashashiga, ijtimoiy jamiyatga oson moslashishiga erishiladi. Marg'ilon shahrining 23-umumta'lim maktabida ham inklyuziv ta'lim-tarbiya tizimi yo'lga qo'yilishi borasida samarali ishlar olib borilmoqda. Ayni kunda mazkur dargohda yangi 2014-2015 o'quv yilidan boshlab 9 nafar shunday bolalarni tengdoshlari qatori darslarga qatnashlari rejalashtirilmoqda.

Chindan ham bu maktabda ma'lum kasallik tashxisi bilan kelgan bolalar guruhlardagi sog'lom bolalar yonida o'tirib, nutqi, fikrlash qobiliyati rivojlanib, mashg'ulotlarda ma'lum vaqt diqqat bilan o'tirish, tadbirlarda ishtirok etishga moslashyapti. Didaktik va harakatli, syujetli-rolli o'yinlarda, ommaviy tadbirlarda, sport musobaqalarida ishtirok etib, topshiriqlarni do'stlaridek o'zlashtirishga erishib bormoqda. Bu ham inklyuziv ta'lim imkoniyatlari kengligidan dalolatdir. Muassasada bu boradagi targ'ibot-tashviqot ishlarini yanada jonlantirish uchun ota-onalar, mahalla faollari, psixologlar va maktab jamoasi ishtirokida psixologik treninglar, davra suhbatlari, anketa so'rovnomalari o'tkazildi.

Nogiron bolalar ota-onalari bilan suhbat o'tkazilganda onalar ko'proq o'zlarini savollar bilan qiynashar ekan: Nimani men noto'g'ri qildim.? Menga nima bo'ldi? Natijada qo'rqinchli javoblar topishadi. Men sog'lom bola tug'a olmayman. Mening bo'ksam juda tor, shuning uchun uning boshini ezib qo'yganman. Turmushga chiqmaganim ma'qul edi. Sog'lom farzandli ota-onalarni ko'rishga ko'zim yo'q! Afsus qilish bilan birga yolg'izlikka intiladi hamda sog'lom farzand ko'rish umidi ham so'nib boradi. Ular orzu qilgan farzand yo'qligini o'ylaydi, biroq ularning yonida nogiron bola mavjud, uni parvarishlash zarur, uni yana majburiyatdan qarashga kirishadi. Mana shunday alohida yordamga muhtoj bolalar ota-onalaridan anketa savollariga javob berishlarini so'radik.

Tadqiqotimizda farzandlarini kelajakda o'z o'rnilarini hayotda topishlari uchun qanday ishlarni amalga oshirishlari zarurligi borasida ulardan quyidagi natijalarni oldik.

1-jadval

Nogiron o'quvchilar ota-onalari bilan o'tkazilgan 1-bosqich anketa-so'rov natijalari.
n=17.

No	Savollar	Respondent-larning Javoblari
1	Farzandingizni qaerda o'qishini xoxlaysiz?	
01	Umumta'lim maktabida	9
02	Alohida uyda yakka tartibda	2
03	Maxsus maktabda	0
04	Biror fikr aytish qiyin. Sababi.	6
2	Farzandingiz umumta'lim maktabida ta'lim olishida sizni tashvishga olgan holatlar	
05	Tengdoshlari bilan munosabati	11
06	Kasb hunarni egallashi	
07	Maktabdagi shart-sharoit	5
08	O'qituvchilar munosabati	1
3	Farzandingiz ta'lim olishi uchun nimalar qilyapsiz?	
09	Oilada farzandimiz uchun qulayliklar yaratganmiz	12
10	Farzandimni mutaxassisga oboraman va qo'shimcha shug'ullanaman	4
11	Biror nima deyishim qiyin	1
4	Farzandingizni shu yoshgacha uni sog'lig'i va kelajagi bilan bironta mutaxassis yoki tashkilot qiziqqanmi?	

12	Ha qiziqqan	8
13	Yo'q, qiziqmagan	1
14	Bilmayman	8
5	Farzandingiz hayoti bilan bog'liq huquqiy hujjatlar bilan tanishmisiz?	
15	Ha	7
16	Yo'q	8
17	Qisman	2

Yuqoridagi 1-jadvalda **“Farzandingizni qayerda o‘qishini xohlaysiz?”**, savoliga ota-onalarning 9 nafari umumta’lim maktabida, deb, 6 nafari biror fikr aytish qiyin, deb fikr bildirganlar (bu 6 nafar ota ona bilan suhbat olib borilgan paytda ular farzandlarining kelajaklari uchun befarqliklari, farzandlarining taqdirlari bilan qiziqmasliklari ayon bo‘ldi). 2 nafar ota-ona yakka tartibdagi uy ta’limini belgilashgan, chunki ular farzandlarining maktabga kelib ketishlari oson emasligi, yurishida deformatsiyalar borligini sabab qilib ko‘rsatganlar.

“Farzandingiz umumta’lim maktabida ta’lim olishida sizni tashvishga soladigan holatlar” nimalar deb o‘ylaysiz savoliga respondentlarning 11 nafari “Tengdoshlari bilan munosabati” deb, 5 nafari “Maktabdagi shart-sharoit”, 1 nafari esa “O‘qituvchilar munosabati” degan fikrlarni bildirganlar. Haqiqatdan ham rivojlanishida orqada qolgan bolalarning jismoniy va ruhiy imkoniyatlari sog‘lom tengdoshlaridan ancha zaif bo‘ladi. Bu cheklanganlik birgalikda faoliyat olib borishlarida turli noqulayliklarni, o‘zaro tushunmovchiliklar va ziddiyatlarni kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Bola bolada, o‘yinni ishtiyoq bilan o‘ynaydi. O‘yinni shartini bajarish uchun imkoniyati cheklangan bolaning chidam va bardosh bilan qilayotgan harakatlari atrofdagi ba’zi tengdoshlari uchun sekin yoki imillab bajariladigan harakat deb qabul qilinadi. Tanasi boshqa dard bilmas. Buning natijasida ayrim tengdoshlari imkoniyati cheklangan bolaga sovuq munosabat qilib uni o‘yindan chetlatib qo‘yishlari ularning ota-onalarini tashvishga solar ekan.


Maktabdagi sharoit ham ota-onalarni tashvishga solishi muqarrar. Chunki nogironlikning turlari ko‘p. Maktab ham nogironlikning turli ko‘rinishlariga qarab jihozlanishi shart. Masalan qulog‘i eshitmaydigan bolalar uchun sirena chiroqlari, ko‘zi ojizlar uchun esa brayl usuldagi kitoblar va o‘quv qurollari, ushlab yurish uchun mo‘ljallangan panduslar, tayanch harakati buzilgan bolalar uchun maxsus pandus va yo‘lakchalar, ostonasiz eshiklar, maxsus partalar bilan birgalikda maktabdagi o‘zaro do‘stona munosabatlar ham samimiylik asosiga qurilgan bo‘lishligi talab qilinadi.

“Farzandingizni shu yoshgacha uni sog‘lig‘i va kelajagi bilan bironta mutaxassis yoki tashkilot qiziqqanmi?” savoliga 8 nafar ota-ona qiziqqan deb javob bergan, biroq qiziqqan tashkilotlarning nomlarini keltirishmagan. 1 nafari biror tashkilot ham qiziqmaganligini, yana 8 nafari esa “Bilmayman” degan javobni belgilashgan. Bilmayman deb javob berishning o‘zi bolasining taqdiriga befarqlik bilan munosabatda bo‘lgan ota-onalar deyish mumkin. Kattalar ko‘magiga muhtoj bo‘lgan bola hech qachon mustaqil harakat qila olmaydi. Bunday harakat va tushunchalarni o‘rgatish birinchi galda ota-onalardan talab qilinadi.


“Farzandingiz hayoti bilan bog‘liq huquqiy hujjatlar bilan tanishmisiz?” savoliga “Ha” deb 7 nafari, “yo‘q” deb 8 nafari, 2 nafari esa qisman tanishganman deb javob berganlar.

Anketa-so‘rovnomalardan so‘ng biz ota onalar uchun seminar – trening o‘tkazish zarurligini anglab etdik. Seminar – trening tashkilladik (seminar-trening dasturi ilova qilinadi). Ushbu treningda ota-onalarga nogironlik turlari, O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi va “O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish” to‘g‘risida Qonunlari, nogironlar bilan olib boriladigan muloqotning qoidalari, nogironlar haqidagi stereotiplar, mashhur nogiron shaxslar haqida nazariy bilimlar berilishi bilan birga, taqdimot va amaliy mashg‘ulotlar ham tashkillandi.

Ikkinchi bosqich anketa so‘rovnomasini o‘tkazdik. Seminar-treningdan so‘nggi o‘tkazilgan anketa so‘rov natijalari quyidagicha. 1-rasm.



“Farzandingizni qayerda o'qishini xohlaysiz?” savoliga respondentlarning 100% foizi, yani 17 tasi umumta'lim maktabida deb javob berganlar. Chunki seminar treningda olgan bilimlari tufayli ular nogiron farzandlarining kelajaklari uchun befarq emasliklarini anglatadi.(2-rasm).



Bolalarini umumta'lim maktablarida sog'lom bolalar bilan o'qishlarini ota-onalar juda xohlayotganliklarini, biroq maktab jamoasi, ya'ni o'qituvchi va tengdoshlari bilan munosabatlarga kirishishlarida 5 nafar ota-onalar farzandini muammolarga duch kelishidan xavotirda ekanliklari, 12 nafar ota-onalar farzandining erkin harakatini amalga oshirishi uchun maktabdagi sharoitlardan xavotiri mavjudligini bildirganlar.


2-jadval

5	Bu seminardan siz qanday yangiliklar oldingiz?	
A	Ha	Farzandimga e'tibor berishni, u bilan ishlashni, uni tushunishni o'rgandim.
B	Yo'q	
V	Qisman	

Alohida ehtiyojli bolalar umumta'lim maktablariga jalb qilingan dastlabki kunlarda, bolalarda ko'nikma hosil bo'lguncha vaqt mobaynida, turli psixologik to'siqlar bo'lishi tabiiy. Bu hol, ayniqsa, boshlang'ich sinflarida ko'proq kuzatiladi. Lekin vaqt o'tishi bilan bu to'siqlar asta-sekin yengib


o'tiladi. Ayniqsa, umumta'lim maktablarida tashkil etilgan inklyuziv o'quvga tortilgan alohida ehtiyojli bolalarda bu holat juda tez o'tib ketadi. Bunga asosan inklyuziv o'quvga jalb etilgan bola bilan mutlaqo sog'lom o'quvchi ta'lim olayotgan sinfda, maktabda bir xil muhit yaratish, har qanday ko'rinishdagi tafovutlarga yo'l qo'ymaslik orqali erishish mumkin. Umuman olganda, alohida ehtiyojli bolalarni odatdagi umumta'lim maktablarida o'qitishni tashkil etishdan maqsad ham birinchi navbatda jismoniy nuqsonli bola nazaridagi sog'lom tengdoshi orasida mavjud bo'lgan ruhiy-ma'naviy to'siqlarni mutlaqo bartaraf etish, jismoniy nuqsoni bor bola ham sog'lom tengdoshi bilan teppa-teng bilim, kasb-hunar egallashi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berishdan iborat.

3-rasm.



3-rasmda "Farzandingiz kelajagi uchun nimalar qilyapsiz?" savoliga 11 nafar ota-ona "Oilada farzandimiz uchun qulayliklar yaratganmiz" degan javobni belgilashgan. Ya'ni ota-onalar farzandlari bilan ishlash yo'llari va usullari haqida bilimga egalar. Shuning uchun ham bu javobni belgilaganlar. Hozirda imkoniyati cheklangan (anamal) o'quvchilarning huquq va manfaatlarini muhofaza qilish borasida mavjud huquqiy bazani yanada takomillashtirish va uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularga ta'lim sohasida barpo etilgan moddiytexnik bazadan oqilona va samarali foydalanish, davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlarini va o'quv-uslubiy adabiyotlarni yanada takomillashtirish, dars jarayoniga yangi axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, ularni jismoniy tarbiya va sportga muntazam jalb etish, anomal o'quvchilarni ijodiy, ilmiy va intellektual salohiyatini oshirishni kengaytirish va ular o'rtasida sog'lom turmush tarzini qaror toptirilsa, albatta, ko'zlangan maqsadga erishish mumkin.

4-rasm.



4-rasmda "Farzandingiz hayoti bilan bog'liq huquqiy hujjatlar bilan tanishmisiz?" savoliga 12 nafar ota-ona ha deb, 4 nafari yo'q deb, bir nafari qisman, deb javob berganlar. Seminar-treningda nogiron bolalar huquqlari to'g'risidagi davlat qonunlari bilan ham tanishganliklari va ularni amaliy mashqlar orqali o'zlashtirib olganliklari farzandini kelajagi uchun to'g'ri yo'l ekanligini tushunib etganliklarining javobidir.

2-jadval

5	Bu seminardan siz qanday yangiliklar oldingiz?	
A	Ha	Farzandimga e'tibor berishni, u bilan ishlashni, uni tushunishni o'rgandim.
B	Yo'q	
V	Qisman	

“Bu seminardan siz qanday yangiliklar oldingiz?” (2-jadval) savoliga ota-onalarning barchasi “Farzandimga e'tibor berishni, u bilan ishlashni, uni tushunishni o'rgandim” kabi javoblarni bildirishgan.

Ota-onalarning fikr mulohazalarini o'rganib bo'lganimizdan so'ng, maktab o'qituvchi va xodimlari uchun anketa so'rovnoma hamda uning natijalariga ko'ra 2 kunlik seminar-trening tashkilladik.

Anketa-so'rovnomada o'qituvchilarni nogiron bolalar bilan ishlash qobiliyatlari, ish tajribalari, ularni ijtimoiylashuviga ta'sir etuvchi omillar haqidagi fikr-mulohazalarini o'rgandik.

O'qituvchilardan olingan anketa so'rov natijalarida maktabning 76 foiz o'qituvchilari ish faoliyatida nogiron bolalar bilan ishlashga duch kelmaganliklari va ular bilan ishlash tajribasi yetishmasligi borasidagi fikrlari aniqlandi. 24 foiz o'qituvchilarda nogironlikning turli darajalari bilan ishlash tajribalarining mavjudligi kuzatildi.

XULOSA

Bu ta'lim tizimini joriy etish uchun avvalo jamiyatni, maktabdagi sog'lom bolalarni ham, imkoniyati cheklangan bolalarni ham bunga moslashtirish kerak. Ayniqsa, boshlang'ich sinfda tahsil olayotgan bolalar nogironlik nima ekanligi, bunday bolalarning ustidan kulmaslik kerakligini bilishmaydi. Shuning uchun ham ular inklyuziv ta'lim davomida nogironligi bo'lgan tengdoshining ustidan kulishi, masxara qilishi, uni ajratib qo'yishi, kamsitishi kabilar kuzatilsa, bu albatta nogironligi bo'lgan bolaning ruhiyatiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi. Sog'lom bolalar orasida o'zini kamsitilganday his etish bola uchun doimiy ruhiy zo'riqish ostida yashashga sababchi bo'ladi. Maxsus maktab-internatlarda esa nogironlik jihatidan bir-biriga o'xshash bo'lgan bolalar ta'lim va tarbiya olishi jarayonida atrofidagi tengdoshlari ham o'ziga o'xshashligi, u kabi kasallik bilan og'rigani uchun ham ortiqcha ruhiy bosimlar kuzatilmaydi va ular o'zlarini atrofdaqilardan zaif va kuchsizday his etishmaydi.

Tadqiqotlarimizning natijalari shundan dalolat berdiki, ota-onalar, maktab o'qituvchilari rivojlanishida orqada qolgan bolalarni ijtimoiylashuvi uchun yakka tartibdagi uy ta'limidan ko'ra inklyuziv ta'limni ma'qul deb topishdi. Bu xulosalarni berishimizga yana bir asos shu bo'ldiki, yakka tartibda uy ta'limida o'qitilayotgan bolalar maktabdagi tadbirlarga tashrif buyurganlarida va bevosita bu tadbirlarda ishtirok etganlarida hamda o'z tengdoshlari bilan muloqot qilganlarida o'zlarini xuddi sog'lom bolalar kabi his qilganliklari kuzatildi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekistonda ijtimoiy ishni rivojlantirish mavzusidagi treninglar materiallari-T.: O'zbekiston, 2006-2008.
2. Sotsiologiya-T.: O'AJBNT markazi 2002.
3. Bekmurodov M.Z. Sotsiologiya asoslari-T.: 2001.
4. www.norma.uz. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim joriy etiladi.-17.10.2020.
5. www.kun.uz. Inklyuziv ta'lim uchun 5 yillik reja.- 18.03.2021